BADIIY TARJIMADA KONTEKST VA TASVIRIY IFODALAR: AYZEK AZIMOVNING “THE FUN THEY HAD” HIKOYASINING O`ZBEKCHA TARJIMASI MISOLIDA.

Atxamova Afsona
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ayzek Azimovning “The fun they had” hikoyasi va uning o‘zbekcha tarjimasidagi kontekst hamda tasviriy ifodalarning qo‘llanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi asl matndagi mazmun va badiiy xususiyatlarning tarjimada qayta ifodalanishi usullarini aniqlash, shuningdek tarjimon tomonidan tanlangan tasviriy vositalarning matnning badiiy ta’sirchanligiga ta’sirini o ‘rganishdan iborat. Qiyosiy tahlil jarayonida inglizcha birliklarning o‘zbek tilida ifodalanishi, kontekstga mos tarjima yechimlari hamda ayrim ifodalarning obrazlilikni kuchaytirish imkoniyatlariga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so`zlar: *badiiy tarjima, kontekst, tasviriy ifoda, badiiy ta’sirchanlik, qiyosiy tahlil, tarjima matni, leksik o‘zgarish*

Abstract: *This article analyzes the use of context and descriptive expressions in Isaac Asimov’s short story “The Fun They Had” and its Uzbek translation. The main purpose of the study is to identify the ways in which the meaning and artistic features of the original text are conveyed in translation, as well as to examine the impact of the translator’s choice of descriptive devices on the artistic expressiveness of the text. The comparative analysis focuses on how English linguistic units are rendered in Uzbek, context-appropriate translation solutions, and the potential of certain expression to enhance imagery.*

Keywords: *literary translation, context, descriptive expression, artistic expressiveness, comparative analysis, translated text, lexical shifts.*

Аннотация: *В данной статье анализируется использование контекста и образных выражений в рассказе Айзека Азимова «The Fun They Had» и его узбекском переводе. Основная цель исследования заключается в выявлении способов передачи содержания и художественных особенностей оригинального текста в переводе, а также в изучении влияния выбранных переводчиком выразительных средств на художественную выразительность текста. В ходе сравнительного анализа рассматриваются способы передачи английских языковых единиц на узбекский язык, переводческие решения, соответствующие контексту, а также возможности отдельных выражений усиливать образность текста.*

Ключевые слова: *художественный перевод, контекст, образное выражение, художественная выразительность, сравнительный анализ, переводной текст, лексические трансформации.*

Badiiy tarjima turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar o‘rtasidagi adabiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutuvchi omil hisoblanadi. Badiiy asarni bir tildan boshqa tilga o‘girish jarayoni nafaqat uning mazmunini yetkazish balki muallifning uslubi, obrazlarning o‘ziga xosligi va matnning badiiy ta’sirchanligini ham qayta yaratishni talab etadi. Shu sababli tarjimon so‘z va iboralarning lug’aviy ma’nosini hisobga olish bilan bir qatorda , ularning matn ichidagi vazifasi hamda kontekst bilan munosabatiga ham e’tibor qaratishi lozim. Badiiy matnda tasviriy ifodalar qahramonlarning holati, voqealarning kechishi va muallif tomonidan yaratilgan manzaralarni o‘quvchiga ta’sirchan yetkazishga xizmat qiladi. Ayrim hollarda tarjimon asl jumlaning ma’nosini boshqa tilga xos obrazli vositalar yordamida ifodalashi mumkin. Bunday yechimlarni aniqlash uchun asl matn va tarjimani qiyoslash lozim.Mazkur tadqiqot obyekti sifatida amerikalik yozuvchi Ayzek Azimovning “The fun they had” hikoyasi va uning Mahbuba Vahobova tomonidan amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimasi tanlangan. Tadqiqot predmeti esa ushbu tarjimada kontekstga mos ifoda tanlash, tasviriy vositalardan foydalanish va badiiy ta’sirchanlikni qayta yaratish xususiyatlaridan iborat.

Kontekst-bu biror bir so‘z, ibora, harakat yoki hodisaning ma’nosi to‘liq tushunish uchun zarur bo‘lgan atrofdagi shart-sharoitlar, vaziyat yoki ma’lumotlar yig‘indisidir. Kontekst tufayli bir xil so‘z yoki harakat turli vaziyatlarda boshqacha talqin qilinadi. Tilshunoslikda so‘zning ma’nosi har doim ham uning lug‘atda berilgan izohi bilan cheklanmaydi. Ba’zi hollarda so‘z yoki iboraning mazmuni u qo‘llangan gap, matnning umumiy mazmuni hamda qahramonlarning o‘zaro munosabati orqali aniqlanadi.

Kontekstning ahamiyati, ayniqsa, badiiy asarlardagi dialoglar, tasviriy ifodalar va muallifning individual uslubini tarjima qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki qahramonning biror fikri yoki munosabati faqat alohida jumla orqali emas, balki undan oldingi va keying voqealar bilan bog‘liq holda aniqlanadi.

Tilshunoslikda kontekstning ikki turi mavjud; lingvistik va ekstrolingvistik.

1.Lingvistik kontekst- so‘zning ma’nosini uning atrofidagi til birliklari, ya’ni boshqa so‘zlar, gaplar va matndan kelib chiqib aniqlash. Masalan, ingliz tilidagi “bright” so‘zini olaylik:

A bright student – qobiliyatli, ziyrak talaba;

A bright room – yorug` xona.

Bu yerda student va room so‘zlari “bright” ning qaysi ma’noda qo‘llangaini tushunishga yordam beradi.

2. Ekstrolingvistik kontekst – so‘z yoki ifodaning ma’nosini tushunishda tilning o‘zidan tashqaridagi omillarni, masalan, tarix, madaniyat, ijtimoiy vaziyat va urf – odatlarni hisobga olish.

Masalan, “watergate” so‘zini olaylik. Uning siyosiy mojaro bilan bog‘liq ma’nosini tushunish uchun, tarixiy voqealar haqida ma’lumotga ega bo‘lish kerak.

Ayzek Azimovning “The fun they had” hikoyasi sarlavhasi o‘zbek tiliga “O‘qituvchi odam bo‘lgan ekan” tarzida tarjima qilingan. Bu yerda sezilarli semantik farq mavjud. Asl

sarlavhada bolalarning maroqli vaqt o‘tkazishi va bundan olgan tassurotlari ifodalansa, o‘zbekcha tarjimada hikoyaning muhim mazmuniy jihatlaridan biri ochib berilgan.

Hikoyadagi voqealar kelajakda sodir bo‘ladi, qahramonlar Tommi va Mari qog‘oz kitob topib olishadi, undan o‘tmishda bolalar maktablarda birga o‘qigani va ularga inson o‘qituvchilar dars bergani haqida ma’lumotga ega bolishadi. Bundan ular hayratga tushishadi, negaki, ular robot o‘qituvchilardan uyda ta’lim olishar edi.

Tarjimon sarlavhada qahramonning hayratini yaxshiroq ifodalab berishga harakat qilgan. Ayniqsa “ekan” shakli qahramonning ilgari bilmagan ma’lumotni anglab yetishi va hayratini ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, tarjimon asl sarlavhaning lug‘aviy mazmunini saqlashdan ko‘ra, hikoyaning muhim g‘oyasini o‘quvchiga ta’sirchanroq yetkazishga intilgan. Natijada sarlavha kontekstga mos va badiiy jihatdan jozibali shaklga ega bo‘lgan.

Asl matndagi “He was busy reading” birikmasi o‘zbek tiliga “kitobdan ko‘zini uzmagan holda” tarzida tarjima qilingan. Inglizcha jumlada qahramonning o‘qish bilan bandligi sodda shaklda ifodalangan bo‘lsa, tarjimada bu holat tasviriy ifoda orqali yanada jonli aks ettirilgan. “Kitobdan ko‘zini uzmagan holda” iborasi qahramonning o‘qishga berilganini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Ushbu misolda tarjimon o‘zbek tilining tasviriy imkoniyatlaridan mohirona foydalangan.

Asliyatdagi “Margie was scornful” jumlasi Marining maktab haqidagi fikrga mensimay munosabatda bo‘lganini ifodalaydi. O‘zbekcha tarjimada qo‘llangan “burnini jiyirdi” birikmasi qahramonning salbiy munosabatini tashqi harakat orqali tasvirlaydi. Ushbu ifoda Marining maktabga nisbatan noroziligini yanada jonli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Bu misol tarjimada tasviriy ifodalardan foydalanish qahramon ruhiyatini ochib berishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Hikoyadagi “a whole box of tools with dials and wires” jumlasining o‘zbek tiliga “har xil temir-tersaklarga to‘la asboblar qutisi” tarzida tarjima qilinishi tarjimonning leksik tanloviga misol bo‘la oladi. Hikoyada muallif asboblarning xususiyatlarini aniq tariflagan bo‘lsa, tarjimada bu detallar “temir-tersaklar” birikmasi orqali umumlashtirgan. Mazkur ifoda buyumlarning tashqi ko‘rinishini batafsil sanab o‘tish o‘rniga, ularning umumiy tasvirini hosil qilgan.

Shuningdek biz tarjimada, asl matnda bo‘lmagan ammo, tarjimon tomonidan qo‘shilgan jumlalarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, birgina“He was thirteen” gapi ortidan tarjimon Tommining elektron kutubxonadan ko‘p kitob o‘qishi va til o‘rganishga qiziqishini ham bayon etib ketgan. Bu qo‘shimcha ma’lumotlar qahramonning qadimiy kitoblarni o‘qiy olishiga va uning mazmunini tushunishga ishora qilmoqda. Bunday yondashuv tarjimada izohlash va matnni kengaytirish usuli qo‘llangaini ko‘rsatadi. Biroq kiritilgan qo‘shimchalarning o‘rinliligi ularning asarning mazmuniga va qahramon xarakteriga qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi.

“In no time” iborasi o‘zbek tiliga “darrovgina” so‘zi orqali tarjima qilingan. Inliz tilidagi ushbu ibora harakatning juda qisqa vaqt ichuda bajarilishini anglatsa, tarjima variant shu

ma`noni ixcham va tabiiy tarzda ifodalaydi. Shuningdek “hisoblab qo‘ya qolardik” birikmasi ham harakatning oson va ortiqcha qiyinchiliklarsiz bajarilishini anglatgan.

Hikoya so‘ngida Marining “The fun they had” jumlasi “O‘sha vaqtlarda bolalarga qanday mazza bo‘lgan ekan-a” tarzida berilishi tarjimonning asar yakunidagi hissiy mazmunini ifodalashga intilganini ko‘rsatadi. Inlizcha nom qisqa va ixcham bo‘lsa, o‘zbekcha variantda so‘roq ohangli, his-hayajon uyg‘otuvchi jumla tanlangan. “Qanday mazza bo‘lgan ekan-a!” ifodasi qahramonning o‘tmishdagi bolalar hayotiga nisbatan qiziqishi va havasini sezdiradi. Shu tariqa tarjimada asar nomi oddiy nomlash vazifasidan tashqari, hikoyaning asosiy g‘oyasi va yakuniy hissiy ta`sirini ham aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ayzek Azimovning “The fun they had” hikoyasi va uning o‘zbekcha tarjimasi tahlili badiiy tarjimada kontekst, so‘z tanlovi va tasviriy ifodalarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Asardagi ayrim iboralarning o‘zbek tiliga tabiiy va ta’sirchan tarzda o‘girilishi tarjimonning til imkoniyatlaridan samarali foydalanganini namoyon etadi. Xususan, ayrim o‘rinlarda so‘zlarning umumlashtirilishi, qo‘shimcha izohlar orqali mazmunning kengaytirilishi hamda qahramonning hissiy holatini ifodalashga qaratilgan tarjima yechimlari kuzatiladi. Bunday o‘zgarishlar matnning o‘zbek tilida ravon anglanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida asl matndagi ma’no va muallif g‘oyasini saqlash ham muhim hisoblanadi. Demak, badiiy tarjimon nafaqat tillarni, balki asarning kontekstini, qahramonlar ruhiyatini va o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish vositalarini ham hisobga olishi lozim. Mazkur tahlil badiiy tarjimada har bir so‘z va ifodaning tanlanishi asarning mazmuni hamda badiiy ta’sirchanligini yetkazishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “The best of Isaac Asimov” Isaac Asimov, 1973 by “Sphere Books”ltd.
2. “O‘qituvchi odam bo‘lgan ekan” Mahbuba Vahhobova tarjimasi, 2013 “Ma’rifat gulshani” gazetasidan.
3. “Tarjima nazariyasi” I.G‘afurov. O.Mo‘minov, N.Qambarov, 2012 “Tafakkur Bo‘stoni”
4. “Tarjima tashvishlari” G‘aybulla Salomov, 1983 “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”
5. “A textbook of translation” Newmark Peter, 1988 New York: Pretice-Hall International.